

MORFEMALI KONTRAKTSIYA 统括 “tongkuo” TURI HAIQDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7352256>

XAMDAMOV Behruz

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

This article is devoted to the study of morphemic contraction 统括 “tongkuo in modern Chinese.

Zamonaviy xitoy tilida morfemali kontraksiyaning to‘rt asosiy turi ajratiladi¹. 综合 suō hé “qisqatirish”, 节略 jié lüè “tushirish”, 间代 jiān dài “almashtirish bilan qisqartirish”, 统括 tǒng kuò “umumlashtirish”. Kontraksiya orqali hosil bo‘lgan so‘z — murakkab qisqartirilgan so‘z hisoblanadi. Morfemali kontraksiya hodisasi abbreviatsiyaning o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, xitoy tilida boshqa til sistemalaridan farqli ravishda elementar birliklarning morfologik va semantik xususiyatlariga tayanadi, shuning uchun chuqur va kengroq chegaralarni qamrab oladi.

Morfemali kontraksiyaning 统括 “tongkuo” turida keng tarqalgan iboraning bitta umumiy qismi ajratiladi va kontraksiya qilinuvchi tashkiliy qismlarning miqdorini bildiruvchi son qo‘yiladi. Bunday usul zamonaviy xitoy tilida tez-tez uchray turadi va bir nechta turlarga bo‘linadi: asosiy so‘z bo‘yicha umumlashtirish, ma’no bo‘yicha umumlashtirish, kompleks umumlashtirish. Ushbu turlarni quyida batafsilroq ko‘rib chiqamiz.

1. Asosiy (butun ibora uchun umumiy bo‘lgan) so‘z bo‘yicha umumlashtirish. Asosiy so‘zning pozitsiyasiga qarab bu kenja tur bir nechta modellarga bo‘linadi.

A. Asosiy so‘z boshlang‘ich pozitsiyani egallaydi: 讲文明 *jiang wen ming*, 讲礼貌 *jiang li mao*, 讲卫生 *jiang wei sheng*, 讲秩序 *jiang zhi xu*, 讲道德 *jiang dao de* – 五讲 *wu jiang* – “rioya qilishning beshta qoidasi”, ya’ni madaniyat, muloyimlik, poklik, tartib va axloqqa rioya etish kabi ma’nolarni o‘z ichiga oladi.

B. Asosiy so‘z oxirgi pozitsiyani egallaydi: 农业现代化 *nong ye xian dai hua*, 工业现代化 *gong ye xian dai hua*, 科学技术现代化 *ke xue ji shu xian dai hua*, 国防现代化 *guo fang xian dai hua* – 四个现代化 *si ge xian dai hua* – “to‘rt modernizatsiya”, ya’ni qishloq xo‘jaligi, sanoat, mudofaa, fan va texnikaviy modernizatsiya deb nomlanadi.

C. Asosiy so‘z turli pozitsiyalarni egallaydi: 与群众同吃 *yu qun zhong tong chi*, 同住 *tong zhu*, 同劳动 *tong lao dong*, 同商量 *tong shang liang*, 把政策同到底 *ba zheng ce tong dao di* – 四同一通 *si tong yi tong* “To‘rttasi birga, bittasini o‘tkazish”, xalq ommasi bilan birga ovqatlanish, yashash, mehnat qilish, muhokama qilish, quyi qatlamlarda siyosat olib borish ma’nolarini anglatadi.

2. Ma’no bo‘yicha umumlashtirish.

马 *ma*, 牛 *niu*, 羊 *yang*, 鸡 *ji*, 犬, 猪 – 六畜 *liu chu* – oltita uy hayvoni: ot, sigir, qo‘y, tovuq, it, cho‘chqa (xitoyliklar falsafasida).

老鼠 *lao shu* kalamush, 苍蝇 *cang ying* pashsha, 文字 *wen zi* chivin, 臭虫 *chou chong* kana – 四害 *si hai* – “zararkunandalarning to‘rtta turi” shaklida umulashtiriladi.

¹Li Xinzun, Xun Liangfen. Liuyu shuo zi.- 上海, 1986. -320 页

3. Kompleks umumlashtirish. Bu turdagi ma’no va asosiy so‘z bo‘yicha stilistik usul (metafora va giperbola) bilan kompleks holda qisqartirishni aks ettiradi: 王 Wang, 张 Zhang, 江 Jiang, 姚 Yao – 四害 si hai – “To‘rtta zararkunanda” – Wang Hunwen, Zhang Chunxiao, Jiang Jin, Yao Wenyuan. Mazkur qisqartirishdagi “zararkunanda” so‘zi – metafora, “to‘rttalovining to‘dasi” a‘zolarining obrazli ifodasi.

水 shui, 肥 fei, 土 tu, 种 zhong, 米 mi, 保 bao, 工 gong, 官 guan – 八字宪法 ba zi xian fa – “agrotexnikaning sakkiz qoidasi”, ya’ni sug‘orish, o‘g‘itlash, tuproqni yaxshilash, navli urug‘larni qo‘llash, zichlashtirilgan urug‘ sepish, ekinlarni himoyalash, qishloq xo‘jaligi qurollarini takomillashtirish va sepilgan urug‘larni parvarishlash. Xitoycha iborada “qoida” so‘zining o‘rniga “konstitutsiya” so‘zi qo‘llangan, bu ham metafora, chunki davlat uchun konstitutsiya qanday ahamiyatga ega bo‘lsa, bu sakkizta qoida qishloq xo‘jaligi uchun xuddi shunday ahamiyatga ega.

Shuni esda tutish kerakki, qisqartirishlarda – umumlashtirishda 两 liang – ikki soni ko‘p hollarda 双 shuang – juft so‘ziga almashtiriladi, masalan, 百花齐放 bai hua qi fang, 百家争鸣 bai jia zheng ming – 双百方针 shuang bai fang zhen – “ikki yuzliklar kursi”, ya’ni yuzta gullar ochilsin, yuzta maktablar raqobatlashsin.

Bir xil ma’noga ega qismi takrorlangan so‘z birikmalarning qisqartirilishi o‘ziga xos bir hodisa hisoblanadi. Mashhur bo‘lgan uchta yomonlik (ofat)ga qarshi harakat, beshta yomonlik (ofat)ga qarshi harakat va boshqa matbuotda keng qo‘llaniladigan atamalar xitoy tilida shunday yasaladi: so‘z birikmani tashkil qiluvchi so‘zlardan faqat takrorlanayotgan qismi ishlatiladi va uni oldiga qancha so‘zlar birga kelganiga ishora qiluvchi son qo‘yiladi. Qolgan morfemalar tushirib qoldiriladi. Masalan, Sun Yatsenning 三民主义 san min zhu yi “xalqning uch prinsipi” so‘zi quyidagi so‘zlarning qisqartmasi hisoblanadi: 民族主义 “milliylik”, 民权主义 “demokratizm”, 民生主义 “xalq farovonligi”. Ushbu uchta so‘zning qayta takrorlanayotgan qismi min, zhuyi olingan, birinchi morfema san “uch” qancha so‘z birlashayotganiga ishora qiladi. 三反 san fan so‘zi so‘zmaso‘z “uchta qarshilik” ma’nosiga ega bo‘lib, quyidagi ma’nolarni o‘z ichiga qamrab oladi: 反贪污 fan tan wu korrupsiya, 反浪费 fan lang fei isrofgarchilik va 反官僚主义 guan liao zhu yi byurokratizmga qarshi kurash. Avvaliga ushbu birikma imperalizm, feodalizm va byurokratik kapitalga qarshi kurash boshqa ma’nolarni ifodalagan.²

四严 si yan “to‘rt jiddiylik” to‘rt so‘zning umumlashmasi: 严格的要求 yange de yaoqiu o‘ziga nisbatan yuqori (qat’iy) jiddiy talablarni qo‘ymoq, 严密的组织 yanmide zuzhi jiddiy ravishda tadbirli bo‘lmoq, 严肃的态度 yansude taidu barchaga jiddiy munosabatda bo‘lmoq, 严明的纪律 yanmingde jilu qoidalarga qat’iy amal qilmoq.

“三光”政策 “san guang” zheng ce – “uch butunlay” siyosati – butunlay yoqib yubormoq, barcha bitta qoldirmay qatl etmoq, barchani oxirigacha tunamoq kabi ma’nolar umumlashmasi hisoblanadi.

三好 san hao “uch yaxshi” sog‘liqqa yaxshi e’tibor bermoq, yaxshi o‘qimoq va yaxshi ishlamoq ma’nolarini o‘z ichiga oladi.

四清 si qing “to‘rt tozalash” harakati – bu sotsialistik tarbiyaga qaratilgan harakat hisoblanib, siyosiy, mafkuraviy, tashkiliy va iqtisodiy tozalash jarayonini qamrab oluvchi qisqartma sifatida qo‘llanilgan.

无论 wu lun “besh qoida” feodalizm davridagi besh asosiy insoniy munosabatlarni anglatgan, ya’ni hukmdor va amaldor, ota va o‘g‘il, katta va kichik aka-ukalar, er va xotin va birodarlar o‘rtasidagi insoniy munosabatlar hisoblanadi.

² 现代汉语词汇知辞。南宁，1973年，6页。

文房四宝 *wen fang si bao* “xonaning (ilm yoki dars bilan shug‘ullaniladigan xona) to‘rt qimmatbaho buyumi”, ya’ni qog‘oz, mo‘yqalam, siyoh va siyohdon nazarda tutiladi. Qadimdan o‘quv qurollari ma’nosida qo‘llangan.

Morfemali kontraksiya turlarining birmuncha o‘zgacha tasnifini I.D. Klenin³ taklif etgan. Renxueliang morfemali kontraksiyani umuman so‘z yasash usuli deb hisoblamay, uni ot so‘zlarni qisqartirish⁴ deb qaraydi. Shunday qilib morfemali kontraksiyaning turlarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelish mumkin. Morfemali kontraksiyaning semantik xususiyati murakkab qisqartirilgan so‘z tarkibida qisqartirilayotgan so‘z yoki so‘z birimalarining ma’no jihatidan eng muhim komponentlari saqlanib qolishi hisoblanadi. Uning struktura xususiyatlari, tilda mavjud bo‘lgan lug‘aviy birliklarga o‘xshash murakkab qisqartirilgan so‘zlarni yasashga bo‘lgan intilishda namoyon bo‘ladi. Qisqartirishlar so‘z qo‘shishning 1- 3 ta modeli atributiv, kopulyativ va fe‘lli-obyektili modellar bo‘yicha hosil qilinadi.

Morfemali kontraksiyaning fonetik xususiyatlari, xitoy tili uchun noqulay bo‘lgan davlatlarning nomlari, ilmiy texnik atamlar ikki, uch bo‘g‘inli tartibgacha qisqartirilishdan iborat bo‘lib, bunda ko‘pincha o‘ziga xos suffiks-klassifikatorlar hosil bo‘ladi; to‘rtinchidan, qisqartirish jarayoni nutq vaziyati, muomala sohasi va uslubiga bog‘liq⁵.

Qisqartirishning asosiy muhiti bo‘lib ijtimoiy-siyosiy va terminologik leksika hisoblanadi. Faqat muayyan doiralarda yoki muayyan geografik joylarda tushunarli bo‘ladigan qisqartirishlar hosil bo‘lishi mumkin. Xaritaga, odatda, to‘liq geografik nom tushiriladi. Ogzaki nutqda yoki telegraf xabarida qisqartirilgan variant qo‘llanadi. Abbreviaturalar va to‘liq so‘zlar o‘zaro almashinishi, e’tiborni ularda mujassamlash maqsadida bir gapda birga qo‘llanishi mumkin. Uzun gaplarda nutqni lo‘nda va tushunarli qilish uchun abbreviaturalar to‘liq so‘zlarning o‘rnini egallashi kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI (REFERENCES)

1. Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке. – Вопросы языкознания, 1975, №2. - С.96-97.
2. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: “Наука”, 1965. – 254с.
3. Li Xinzun, Xun Liangfen. 流语说字. –上海出版社, 1986. 410 页.
4. Ren Xueliang. 汉语造字法. –北京: 中国社会科学出版社, 1981. 278 页.
5. Wang Xijie. 汉语修辞法. –北京出版社 1983. 377页.
6. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
7. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
8. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).*
9. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
10. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.

³ Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке // Вопросы языкознания. – М.: “Наука”, 1975. – С.89-99.

⁴ Ren Xueliang. 汉语造词法. – Beijing, 1981. – 190 页.

⁵Хаматова А.Словообразование современного китайского языка. – М.: Муравей, 2003. – С.180.

11. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
12. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
13. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
14. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
15. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
16. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
17. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
18. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
19. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
20. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
21. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019